



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



15-16-MAY
2026-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ilgari surilgan gipotezani asoslash va tekshirish maqsadida biz quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik:

Nazariy metodlar: falsafiy va metodologik yondashuv asosida tahlil qilish, psixologik, pedagogik hamda metodik adabiyotlarni o'rganish, mavzuga oid me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish, ilgari qo'llanilgan tajribalarni o'rganish, qiyosiy tahlil, tasniflash, tarkibiy tahlil va modellashtirish asosida asosiy tushunchalar va tamoyillar ishlab chiqildi.

Empirik metodlar: o'quvchilar orasida so'rovnomalar o'tkazish, testlar orqali ularning kommunikativ kompetensiya darajasini aniqlash, o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, ekspert baholash asosida aniqlovchi xulosalar chiqarish, bevosita kuzatuv olib borish va pedagogik eksperiment (aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqichlar) orqali amaliy jihatdan gipotezani tekshirish orqali amalga oshirildi.

Olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Texnikumlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchilarning o'zlaridagi kommunikativ salohiyat darajasiga bog'liq bo'lib, bu omil ta'lim samaradorligining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan pedagogik boshqaruv uslubining tanlanishi bevosita pedagogik muloqotning moslashuvchanligi, o'zgaruvchanligi, shuningdek o'quvchilar shaxsiyati, yosh xususiyatlari va o'quv faoliyatining turli jihatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida umumlashtirilgan psixologik-pedagogik bilimlardan samarali foydalana oladigan, nutqiy madaniyati rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan va to'g'ri muloqot usullarini tanlaydigan mutaxassislarni shakllantirish kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zarur sharti sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Прозорова Е.В. Педагогические условия развития коммуникативной компетентности // Мир психологии. — 2003
2. Mingboyev U. X., Raxmatov A. Sh. Zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalanib bo'lajak muhandislarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish // Komyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik amjuman materiallari to'plami 1-qism. 2024.
3. Raxmatov A. Sh. "Raqqamli ta'lim muhitida talabalarda kasbiy-kommunikativ kompetentlik" // Kasb-hunar ta'limi jurnali, 2025-yil 1-son

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI TUSHUNCHASI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Xanberdiyeva Mumtoza Ruslanovna
Xalqaro Nordik Universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi,

Yangihayot tumani 303-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
mxanberdiyeva@gmail.com
+998935869484

Anatatsiya: Ushbu maqolada ta'lim transformatsiyasi tushunchasining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar hamda global ta'lim tendensiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri yoritib beriladi. Maqolada ta'limni modernizatsiya qilish, o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan zamonaviy strategiyalar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, gamifikatsiya (o'yin elementlarini qo'shish), interaktiv metodlar va raqamli platformalardan foydalanishning samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ta'lim transformatsiyasi, raqamli ta'lim, innovatsion metodlar, gamifikatsiya, kompetensiya, zamonaviy tendensiyalar, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the essence of the concept of educational transformation, its role and significance in the modern education system. It also highlights the impact of digital technologies, innovative pedagogical approaches and global educational trends on the educational process. The article considers modern strategies aimed at modernizing education, developing students' competencies and improving the quality of education. In addition, the effectiveness of using gamification, interactive methods and digital platforms is analyzed on a scientific basis. The results of the study are of great importance in improving the educational process and adapting it to the requirements of the time.

Keywords: educational transformation, digital education, innovative methods, gamification, competence, modern trends, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность концепции образовательной трансформации, её роль и значение в современной системе образования. Также освещается влияние цифровых технологий, инновационных педагогических подходов и глобальных образовательных тенденций на образовательный процесс. В статье рассматриваются современные стратегии, направленные на модернизацию образования, развитие компетенций учащихся и повышение качества образования. Кроме того, на научной основе анализируется эффективность использования геймификации, интерактивных методов и цифровых платформ. Результаты исследования имеют большое значение для совершенствования образовательного процесса и его адаптации к требованиям времени.

Ключевые слова: образовательная трансформация, цифровое образование, инновационные методы, геймификация, компетенции, современные тенденции, педагогические технологии.

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish davrida ta'lim tizimi tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An'anaviy ta'lim modeli zamonaviy talablarni to'liq qondira

olmayotgani sababli, ta'limni transformatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Ta'lim transformatsiyasi — bu ta'lim mazmuni, metodlari va texnologiyalarini yangilash jarayoni bo'lib, u o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. [1]

Ta'lim transformatsiyasi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va uni global talablar darajasiga olib chiqish mumkin. Raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot davrida inson kapitali rivojlanishining eng muhim omili bo'lgan ta'lim tizimi jadal o'zgarishga yuz tutmoqda. Yangi avlod o'quvchilari - raqamli dunyo insonlari uchun an'anaviy ta'lim shakllari va vositalari tobora yetarli bo'lmay qolmoqda. Shu bois, ta'limni transformatsiya qilish, ya'ni uni zamonaviy raqamli, innovatsion va adaptiv tizimga aylantirish zarurati dolzarb masalaga aylandi.²

Ta'lim transformatsiyasi jarayoni nafaqat texnologik yangilanishni, balki ta'lim falsafasi, mazmuni va boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirishni ham anglatadi. U yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirib, ta'limni shaxsga, ijtimoiy ehtiyojlarga va mehnat bozori talablari bilan uyg'unlashtirishni ko'zda tutadi.³

Ta'lim transformatsiyasi tushunchasi. “Transformatsiya” so'zi lotincha “transformare” — “ko'rinishini o'zgartirish” ma'nosini bildiradi. Ta'lim transformatsiyasi atamasi, shunga muvofiq, ta'lim tizimining ichki tuzilmasi, maqsadlari, mazmuni va shakllaridagi sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishni anglatadi.

Bugungi kunda bu jarayon quyidagi asosiy yo'nalishlarda kechmoqda.⁴

1. Raqamlashtirish - ta'lim jarayonida sun'iy intellekt, onlayn platformalar, elektron darsliklar, “bulutli” texnologiyalar va masofaviy o'qitish tizimlarini qo'llash;

2. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - individual o'quv yo'nalishlarini shakllantirish, adaptiv baholash tizimlari va interaktiv metodlarni keng joriy etish;

3. Uzluksiz ta'lim - hayot davomida o'qish (lifelong learning) tamoyilini kompetensiyaviy yondashuv - bilimlar yig'indisidan ko'ra amaliy ko'nikma, muammoli fikrlash va kreativ ijodkorlikni ustuvor yo'nalishga aylantirish.

Ta'lim transformatsiyasining poydevorida innovatsion fikrlash yotadi. O'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki jarayonni boshqaruvchi, yo'naltiruvchi va motivatsiya manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim transformatsiyasi tendensiyalari bu - raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi. So'nggi yillarda ta'limda raqamli muhit va elektron platformalarning o'rni keskin oshdi. Masalan, Google Classroom, Moodle, Coursera, EdX kabi platformalar nafaqat masofaviy ta'limni, balki moslashuvchan, multimodal o'qitish usullarini rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham “Raqamli ta'lim” konsepsiyasini

² To'raeva, N. (2021). Ta'lim tizimini raqamlashtirishning nazariy asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

³ Anderson, T., & Dron, J. (2017). Teaching Crowds: Learning and Social Media. AU Press.

⁴ UNESCO (2023). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Paris. unescodoc.unesco.org

amaliyotga joriy etish orqali elektron ta'lim resurslari, milliy onlayn dasturlar va raqamli malaka markazlarini yaratmoqda.⁵ Bu jarayon pandemiya bosqichida o'zining dolzarbligini yanada oshirdi.

Sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalarining integratsiyasi. Bugungi raqamli ta'limda sun'iy intellekt (AI) individual o'quvchi faoliyatini tahlil qilib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, shuningdek, shaxsiy o'quv yo'llarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Big Data texnologiyalari esa ta'lim natijalarini statistik tahlil qilish, baholash tizimini optimallashtirish imkonini beradi. Masalan, AI asosidagi "adaptive learning" tizimlari (Carnegie Learning, Smart Sparrow) har bir o'quvchiga mos tezlik va murakkablik darajasini avtomatik tarzda tanlaydi, shu orqali o'qish samaradorligini oshiradi.

Gamifikatsiya va EdTech innovatsiyalari. Ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya (o'yin elementlarini dars jarayonida qo'llash) keng tarqalmoqda. U o'quvchini faol ishtirok etishga, motivatsiyani kuchaytirishga va o'zlashtirishni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, EdTech kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilayotgan interaktiv dasturlar ("Duolingo", "Kahoot", "Quizizz") o'qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.⁶

Ta'lim transformatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati qay darajada muhim? Ta'lim transformatsiyasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, mehnat bozori raqobatbardoshligi va innovatsion rivojlanish salohiyati bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimi yangi iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli kompetensiyalar, kreativlik va moslashuvchan fikrlash qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlaydi. O'zbekiston 2030-yilgacha mo'ljallangan Raqamli O'zbekiston strategiyasi doirasida ta'limni iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasiga moslashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi e'tirof qilinadi. Shu ma'noda, pedagogik ta'limni qayta qurish, o'qituvchilarni raqamli kompetensiyalar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tarmoqlashtirish va akademik erkinlikni kengaytirish zarur bo'lmoqda. Mazkur islohotlar esa zamonaviy o'quv jarayonini xalqaro raqamli makonda raqobatbardosh holatga keltirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim transformatsiyasi - bu texnologiyalarni joriy etishdan ko'ra ancha kengroq tushuncha. U inson tafakkuri, ijtimoiy munosabatlar, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot madaniyatini ham yangicha bosqichga olib chiqadi. Zamonaviy ta'lim tendensiyalarini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli kompetensiya, moslashuvchan o'qitish, hayot davomida ta'lim va innovatsion pedagogika kabi yo'nalishlar - XXI asr ta'lim tizimining asosiy tayanch ustunlariga aylanmoqda. Shunday qilib, ta'lim transformatsiyasi mamlakatning intellektual boyligini oshirish, yoshlarni global raqobatga tayyorlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Raqamli ta'lim konsepsiya"si to'g'risida qaror. (2022)

⁶ Balyk, O. (2020). "Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges." *European Journal of Education Studies*, 7(9).

1. Anderson T., Dron J. Teaching Crowds: Learning and Social Media. — AU Press, 2017.
2. Balyk O. Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges // European Journal of Education Studies. — 2020. — Vol. 7, №9.
3. Deterding S. Gamification in Education and Learning // Educational Technology Journal. — 2013. — №4. — B. 15–20.
4. Frydenberg M. Blended Learning Pedagogy: Transforming the Classroom Experience // EDUCAUSE Review. — 2018.
5. Hamidov B. Gamifikatsiya metodlari va ularning ta’limdagi samaradorligi // Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali. — 2022.
6. Ismoilov R. Pedagogik innovatsiyalar va interaktiv metodlar. — Toshkent, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida farmon. — 2020-yil 5-oktabr.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Raqamli ta’lim konsepsiyasi to‘g‘risida qaror. — 2022.
9. Ta’lim siyosatini rivojlantirish markazi. Milliy ta’lim transformatsiyasi hisobot. — 2024.
10. Prensky M. Digital Game-Based Learning. — New York: McGraw-Hill, 2007.
11. To‘raeva N. Ta’lim tizimini raqamlashtirishning nazariy asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.

**ELEKTRON TA’LIM MUHITIDA INTELLEKTUAL
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN
DASTURIY VOSITALARNING PEDAGOGIK TASNIFI VA DIDAKTIK
IMKONIYATLARI**

Bozorov G‘iyosiddin Sa‘dullayevich

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti,
bozorovgiyosiddin@jbnuu.uz

Xolmatov Javlon Yusupovich

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi,
javlonxolmatov@jbnuu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada elektron ta’lim muhitida talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturiy vositalarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida intellektual kompetentlikning kognitiv, analitik, kreativ va refleksiv komponentlariga dasturiy vositalarning ta’siri ilmiy asoslangan. LMS platformalari, MOOC tizimlari, adaptiv o‘quv platformalari, interaktiv resurslar, diagnostik monitoring vositalari hamda kontent yaratish tizimlarining didaktik funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, dasturiy vositalarni tanlashning didaktik moslik, interaktivlik, intellektual faollashtirish, refleksiv qo‘llab-quvvatlash va integratsiyalashuv mezonlari tavsiflangan.